

MARKAZIY OSIYO LIMOLOGIK MUAMMOLARI - MILLIY HUDUDIY CHEGARALANISH HOSILASI SIFATIDA

Tursunov Yunusali Abduaziz o'g'li

*Namangan davlat universiteti Geografiya yo'nalishi II-kurs iqtidorli talabasi. E-mail:
yunusalitursunov8@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda o'tgan XX asrning 20-30-yillarida amalga oshirilgan milliy hududiy chegaralanish – tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy geografik jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, chegaralanish natijasida davlatlar o'rtasida shakllangan yer-suv, etnik, bahsli hududlarda limologik muammolarning kelib chiqishi yoritib berilgan. Qolaversa, davlatlar o'rtasidagi yer almashinish jarayonlari va diplomatik kelishuvlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: milliy hududiy chegaralanish, limologiya, delimitatsiya, demarkatsiya, kompensatsiya, ratifikatsiya.

KIRISH

Tarixiy nuqtai nazardan, Sovet rejimi tomonidan bosib olingan Markaziy Osiyo hududida XIX asrning boshlarida mavjud bo'lgan Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalarining tugatilishi hamda ularning o'rniga Markaziy Osiyo davlatlarini tashkil qilish niqobi ostida amalga oshirilgan siyosiy ajratish jarayonlari mintaqada chuqur iz qoldirdi. Bu jarayon tarixan bir-biridan ajralmas hududlarda yashagan qardosh xalqlarning sun'iy chegaralar bilan ajratilishiga olib keldi va ularning yagona davlat sifatida birlashishiga yo'l qo'yilmadi.

Geografik jihatdan esa, Markaziy Osiyo Yevrosiyo materigining markaziy qismida joylashgan bo'lib, bu hudud tabiiy va inson resurslariga boy, shu bilan birga, Xitoy, Eron va Rossiya kabi rivojlangan va yadroviy qurollarga ega davlatlar o'rtasida joylashgani sababli, geostrategik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, mintaqa terrorizm, narkobiznes va ekstremizm tahdidlari mavjud bo'lgan xavfli o'choqlarga yaqin joylashgani bois, bu tahdidlar mintaqadagi davlatlarning o'zaro hamkorlik va umumiy yaxlitlikda faoliyat yuritishini taqozo etadi.

Chegaralar davlatning siyosiy-hududiy tuzilmasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisalar bo'lib, ularning barqarorligi jamiyatning hududiy ijtimoiy tashkil etishda fundamental ahamiyatga ega. Chegaralarning barqarorligi nafaqat davlatning ichki xavfsizligi va siyosiy mustahkamligini saqlashda, balki xalqaro maydondagi mavqei belgilashda ham hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, chegaradosh hududlardagi hamkorlik zamonaviy xalqaro aloqalarning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan.

Hozirgi global dunyo sharoitida, chegara hududlari davlatlar uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, u yerda tashqi siyosat, iqtisodiyot, gumanitar va xavfsizlikka oid ko'plab muhim masalalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda to'qnashadi. Chegaradosh hududlarda bu jarayonlar yanada yaqqol namoyon bo'lib, ular davlatlar o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishiga bevosita

ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ushbu masalaning dolzarbligi nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki chegaralar siyosiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va gumanitar munosabatlarni rivojlantirishda asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy hududiy chegaralanish tarixi. Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan uchta xonlik hududi Kaspiy dengizidan to hozirgi Xitoy Xalq Respublikasi tomon cho'zilgan edi (1- rasm).

Garchi mazkur uchta xonlik bir-biri bilan tez-tez urush olib borgan bo'lsada ular egallagan hudud tarixiy xaritalarda va turli mualliflar asarlarida umumiy tarzda O'zbek va O'zbekiya nomlari bilan tilga olingan.

Bu mintaqa azaldan turkiy xalqlarning yagona maskani va umumiy vatani bo'lgan. 1918–1924-yillarda mavjud bo'lgan Turkiston ASSR, BXR va XXSRning tub xalqlari asrlar davomida turmush tarzi va an'analari jihatidan bir-biriga juda yaqin bo'lishgan [1; 41-b]. 1917-yilgi inqilob va fuqorolar urushidan keyin bu yerda Turkiston avtanom Sovet Sotsialistik Respublikasi, Buxoro va Xorazm Sovet Xalq Respublikalari tuzuldi.

O'rta Osiyoni "milliy belgilarga qarab" bo'lib tashlash g'oyasi 1924-yilda ko'rilgan emas. Bu g'oya 1920-yilning boshidayoq Turkkomisiya raisi Y.E. Rudzudak tashabbusi bilan e'lon qilingan tezislarda Turkiston ASSRni milliy belgilarga qarab, bo'lib tashlash va muxtor (avtonom) respublikalar tuzish taklif qilingan edi. V.I.Lelin 1920-yil 13-iyunda Turkkomissiya qarori loyihasini shaxsan ko'rib chiqdi va o'sha paytdayoq Turkistonni "Узбекия", "Киргизия", "Туркмения" davlatlari va boshqa etnik guruhlariga bo'lib parchalab tashlashni, ularning xaritasini tuzish zarurligini ko'rsatgan edi [2; 397-b].

Turkkomissiya va Y.Rudzudak tezislarga qarama-qarshi o'laroq Turor Rizqulov boshchiligidagi bir guruh milliy kommunistlar 1920-yildayoq turkiy xalqlar yagona bo'lib, ularning tarixiy ildizlari, dinlari, an'analari va madaniyati mushtarakdir.

Yagona Turkistonni alohida qismlarga ajratib bo'lmaydi degan g'oyani ilgari surgan edilar. Markaziy kommunistlar bu fikrni inkor etib, uni "panturkizm", "panislomizm", "burjua millatchilik va o'ng og'machilar" deb noto'g'ri baholar edi. [1; 49-b]

Bir tomondan, 1920-yildan boshlab istiqloqlilik harakatini qaytadan shiddat bilan rivojlanishi, ikkinchi tomondan qizil armiyaning Xiva xonligi va Buxoro amirligi ag'darib tashlanib ular o'rnida "Mustaqil respublikalar" tashkil qilinganligi bu masalada bolsheviklarni yana 4 yil sabr qilishga olib keldi. Xullas, sovet hokimiyati rahbariyati 1924-yildan boshlab ushbu masalani hal etishga jiddiy kirishdi [1; 50-b].

O'rta Osiyo Respublikalarining shakillanishi I.V.Stalinni qo'li bilan bo'ldi. Stalin millat etnik qarama-qarshiliklarda juda unumli foydalanib, bu yerdagi xalqlarning ko'ngliga doimo yovuzlik urug'i, millatchilik, mahalliychilik kabi fikrlarni singdirgan. V.M. Molotovning aytishicha : yangi tashkil etilgan O'zbek, Qozoq rahbarlari Toshkent masalasida Moskvaga chaqirildi.

Bu paytda Toshkentni siyosiy va ma'muriy jihatdan bo'lish masalasi ketayotgan edi. Stalin bu yig'ilishda O'zbekiston va Qozog'iston SSSR o'rtasidagi nifoqdan foydalanib "Tushunarli kelinglar Toshkentni o'zbeklarga beramiz, Verniy esa qozoqlarga bo'laqolsin" dedi. Shuningdek, Farg'ona vodiysini ham fitnakorona 3 ga Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston o'rtasida bo'lib yuborishadi [3].

Markaz tomonidan milliy respublikalar va viloyatlar tuzishga ko'rsatmalar berilishi hamda uning siyosiy jihatdan asoslanishi 1924- yil 12- iyunda I.V.Stalin taklifi bilan RKP(b) MK Siyosiy buyrosi "O'rta Osiyo Respublikalarini milliy hududiy chegaralash to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi. RKP(b) MK bosh kotibi I.V.Stalin RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi raisi Y.Rudzudak va boshqalar O'rta Osiyoda milliy mojarolar mavjudligini takidlashdan charchashmadi. Nihoyat, 1924-yil 27-oktabrda Moskvada bo'lgan Butunittifoq (SSSR) Markaziy ijroi Qo'mitasining 3-sessiyasida Turkiston ASSR MIK favqulodda sessiya Butunbuxoro va Butunxorazm xalq vakillarining 5-qurultoyi qarori asosida O'rta Osiyo milliy chegaralari tuzish to'g'risida maxsus qaror qabul qilindi va o'tkazilgan milliy hududiy chegaralanish O'rta Osiyo respublikalari, RSFSR va SSSRning oliy organlari tomonidan qonuniy kuchga kirdi [3].

O'rta Osiyo hududidagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o'rnida oltita milliy davlat birlashmalari tashkil etildi (1-rasm).



1-rasm. Markaziy Osiyoning 1924-25 yildagi xaritasi [13].

Shunday qilib Markaziy Osiyodagi chegaraviy muammolar va anklav/eksklav hududlarning shakllanishiga ham 1924-yilda amalga oshirilgan milliy hududiy chegaralanish sabab bo'lgan. Mintaqadagi xalqlarning tarixi geografik, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga juda kam e'tibor berildi. Bu hududdagi xalqlarning dini, tili, millati birligiga qaramay madaniy-xo'jalik faoliyatining yagona boshqarish doirasida siyosiy jihatdan umumlashganligi inkor etildi. Natijada juda katta chegara muammolari uchun yo'l ochildi. Chunki o'tkazilgan chegaralanishning asosi asosan milliy tamoyillarga qurilgan edi. Buning natijasida esa hozirgi yer-suv muammosi, anklav/eksklav hududdagi turli mojarolar, ona davlat va o'rab turuvchi davlatlar o'rtasida esa turli ziddiyatlar kelib chiqdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida yer-suv masalalarida ziddiyatlar yuzaga keldi. Xususan, XX asr oxirida Panj va Vaxsh daryolariga suv omborlari, GES, to'g'on va gidrouzellarning qurilishi oqibatida Amudaryo suvi ham kamayib nafaqat O'zbekiston shu bilan birgalikda Avg'onistonning shimoliy, Turkmanistonda ham suv resurslarining kamayishi kuzatilmoqda.[15]

Hozirgi vaqtda ham suv bilan bog'liq muammoli vaziyatlar anklav-eksklav hududlarda dolzarbligicha qolmoqda. Jumladan, So'x, Shoximardon va Vorux singari yirik anklavlarda dolzarb tus olgan.

Misol tariqasida quyidagini ko'rishimiz mumkun:

Chashma mojarosi: 2020-yil 31- mayda So'x tumani Chashma qishlog'i va Qirg'izistonning Qadamjoy tumanida joylashgan Chechme qishlog'i aholisi o'rtasida tortishuv qo'zg'alib to'qnashuvlar yuz berdi [4]. Bunday holatlar uzoq yillar davomida tuman atrofida "muammolar zanjiri" singari to'plangan. So'xliklar esa uni girdobida qolib ketgan. Bunday noxush holatlarni yana takrorlanishini oldini olib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan "2020-2021-yillarda Farg'ona viloyatining So'x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" qaror imzolandi [5].

"Qirg'iz-Tojik chegaradagi mojaro" deb nomlangan Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari chegarasi o'rtasidagi turli to'qnashuvlarning kelib chiqishi ham suv muammosi hisoblanadi.

Mojaro Isfara daryosining yuqori qismida Ko'k-Tosh qishlog'i yaqinidagi Golovnaya suv taqsimlash punkiti tufayli boshlangan. Shunga o'xshash noxush holat 2022-yilda ham chegarabo'yi hududlarda kuzatilgan (2-rasm).



2-rasm. Qirg'iziston va Tojikiston chegarasidagi to'qnashuvlar xaritasi [14]

O'zbekiston va Qirg'iziston respublikalari o'rtasida delimitatsiya-demarkatsiya va yer almashinish munosabatlari:

Zamonning o'zi bugun taraqqiy etishni istagan, xalqi farovon, tinch-osoyshta yashashni xoxlagan mintaqalar oldiga davrning dolzarb muammosi bo'lgan chegara masalasini tinchlik bilan xal etish zaruriyatini ko'ndalang qo'ymoqda.

Qo'shni Qirg'iziston bilan kelishilmay qolgan 35 ta uchastka jami 302 km chegara mavjud bo'lib mazkur uchastkalar ustida 5 yildan oshiq vaqt muzokaralar olib borilgan [7].

Ikki qo'shni davlat o'rtasida iqtisodiy aloqalarni yaxshilash, ba'zi chegarabo'yi joydagi holatni yengillashtirish va turli neytrallikdagi hududlarga barham berish maqsadida juda ko'p bahs va munozaralarga sabab bo'layotgan hududlar o'z yechimini topmoqda (1-jadval)

1-jadval

O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida kelishilgan holatda almashinilgan hududlar

O'zbekiston tarkibiga o'tgan hududlar		Qirg'iziston tarkibiga o'tgan hududlar
Qirg'iziston hududidagi Andijon suv ombori (4 957 ga).	Ikki davlat roziligi asosida ma'lum bir evaziga boshqa hudud almashinishi	Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani Oshaxo'r uchastkasining yaylov va maydonlari (1 019 gektar).
Suv ombori va to'g'onga xizmat ko'rsatish uchun yana 19 gektar maydon		Qirg'izistonliklar ham ayrim maqsadlarda foydalanishiga ruxsat berilishi nazarda tutilgan
Demarkatsiya jarayonida tartibga solinishi talab etilayotgan 10 ta uchastka bo'yicha Qirg'iziston tarafidan O'zbekistonga 429 gektar yer maydon olinmoqda.		O'zbekiston vodiy viloyatlari hududidan 294 gektar maydonni berish bo'yicha kelishuvga erishilgan
Andijon suv ombori qurilgan SSSR davrida O'zbekiston chap qirg'oqdan 200 km dan uzunroq kanal qurish majburiyatini olgan edi. Lekin u qolib ketgan. Shu sababli Qirg'iziston tarafi Burgandi massivida 8 mingdan 18 ming gektargacha yerlarni o'zlashtirmay qolgan	Tarixiy jihatdan qat'ib bo'lib qolgan majburiyatlarni va ajratilgan yer maydonlarini kompensatsiya qilish dida o'tkazilgan hududlar	Oldindan baxsli bo'lgan Namangan viloyatining Pop va Chust tumanlaridagi "G'ovasoy" uchastkasidan 12709 gektar yaylov maydon Qirg'izistonga o'tkazib berish taklif qilingan.
Namangan viloyati Kosonsoy va Chust tumanlari uchun asosiy sug'orish manbaasi bo'lgan Kosonsoy suv ombori Qirg'iziston xududidagi 850 gektar maydonda joylashgan. Suv ombori to'liq O'zbekiston extiyojlari uchun ishlatib kelinadi.		Namangan viloyati hududidan 447 gektar yer maydoni ajratish taklif qilingan. Bunda, Chust tumanidan ajratishi taklif qilingan 105 gektar yer maydoni Qirg'iziston fuqorolari istiqomat qilib kelgan, baxsli Qoraqo'rg'on massivini qirg'iz tarafga berish aytib o'tilgan

Jadval. Internet manbaalari asosida Muallif tomonidan yaratildi.

2022-yilning 14-noyabr kuni Oliy majlis palatasida O'zbekiston bosh vaziri Abdulla Aripov "O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida o'zbek-qirg'iz davlat chegarasining alohida uchastkalari to'g'risidagi Shartnomani ratifikatsiya qilish haqida"gi [8] hamda «O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Qirg'iziston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'rtasida Andijon (Kampirobod) suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish to'g'risidagi Bitimni ratifikatsiya qilish haqida»gi [9] qonun loyihalari yuzasidan axborot berdi.

Vanihoyat ko'rsatilgan siyosiy iroda natijasida ikki qardosh xalq o'rtasidagi yaxshi qo'shnihilik mustahkamlanib, 30 yildan beri hal bo'lmayogan nizolarga qonuniy yechim topildi. «Keyingi besh yil davomida Qirg'iziston bilan 1170 km, Tojikiston bilan 193 km uzunlikdagi chegara chiziqlari kelishilib, delimitatsiya shartnomalari imzolandi.

Qozog'iston bilan 2356 km uzunlikdagi davlat chegarasi demarkatsiya qilindi. 15 ta chegara o'tkazish punktlari faoliyatlari qayta tiklandi: Tojikiston bilan-10, Qirg'iziston bilan-3, Qozog'iston bilan-2 ta. Hozirda ushbu yangi ochilgan chegaralardagi o'tkazish punktlaridan kuniga 18 ming fuqaro va mingdan ortiq yuk avtomobillari o'tadi», - deb ma'lumot beradi O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri Abdulla Aripov [10].

Qirg'iziston Milliy xavfsizlik qo'mitasi raisi Qamchibek Tashiyev mamlakat parlamentida o'tgan yig'ilishda O'zbekiston bilan chegara delimitatsiyasi doirasidagi yer almashuvlari haqida ma'lumot berdi. Uning aytishicha Qirg'izistonga quyidagi hududlar o'tgan (1-jadval). 1-jadval

O'zbekiston hududidan Qirg'iziston hududiga o'tgan hududlar

Joy nomlari	Maydoni (gektar hisobida)
G'ovasoy hududi (G'ovasoy daryosi o'tgan hudud)	12946
Ola-Buqa tumanidagi Ko'kserek qishlog'i	105
Ola-Buqa tumanidagi Bayastan qishlog'i	212
Ungar-Too tog'i	35
Qorasuv tumanidagi Oqtosh qishlog'i	100
Ola-Buqa tumanidagi Qorabeles qishlog'i	25
Shahrihonsoyning bir qismi	19,5
So'zak tumanidan qo'shimcha	500
O'zgan tumanidan qo'shimcha	500
O'rta to'qay suv ombori	1009,5 (to'laligicha)
Ola-Buqa tumanidagi Birinchi may va Ko'kserek qishloqlari	To'laligicha
Oqsoy tumanidagi Jyetigen, Kerben va "Aeroport" qishloqlari	571
Nooken tumanidagi Shamaldisoy qishlog'i	1088
Aravon tumani	148
Qadamjoy tumanidagi Ko'kdala va Pildiriq hududlari	1013

Jadval. URL: <https://kun.uz/uz/96553020> manbaa asosida

Muallif tomonidan yaratildi.

Shuningdek, Tashiyev Kampirravot suv ombori yaqinidagi 4 485 gektar yer O'zbekistonga o'tganini ma'lum qildi. Uning so'zlariga ko'ra, suv omborida suvning gorizontalsig'imi hajmi 908 metrdan 900 metrga tushirilgach, 1 246 gektar yer bo'shagan va bu yerlar Qirg'izistonga o'tgan. [11]

Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari o'rtasidagi munosabatlar:

Hozirda Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasidagi chegara hududida bir necha bahsli uchastkalar mavjud.

Ular asosan Qirg'izistonning O'sh viloyati Leylek tumani va Batken viloyati hamda Tojikistonning Sug'd viloyati Isfara tumani va Jirgital tumanida joylashgan. Qirg'iziston hududida Tojikistonning Sug'd viloyati Isfara tumaniga tegishli bo'lgan kichik uchastka (130 ming kv. km) mavjud bo'lib, u Vorux anklavi hisoblanadi. Voruxda aholi soni turli baholarga ko'ra 23 mingdan 29 ming kishigacha, ularning 95 foizi tojiklar, 5 foizi qirg'izlardir.

Ushbu hududda yuz berayotgan jarayonlar yetarli darajada nazorat qilinmagani sababli radikal kayfiyatlarning tarqalishi uchun qulay sharoit yaratilmoqda [12].

Ko'plab muammolar qatorida, Qirg'izistonning Batken viloyati va Tojikistonning Sug'd viloyatida mahalliy darajadagi ko'plab ziddiyatlar mavjud. Bu ziddiyatlarning asosiy

sabablari sifatida davlatlararo munosabatlarning hal qilinmaganligi, tabiiy resurslardan birgalikda foydalanish muammolari va davlat chegarasini aniqlash jarayonining to'liq yakunlanmagani ko'rsatiladi.

Qirg'iziston-Tojikiston davlatlaridagi yana bir dolzarb masalalardan biri Tojikiston fuqarolarining Qirg'iziston hududiga ko'chib o'tishidir.

Etnik qirg'izlarning O'zbekiston va Tojikistondan Qirg'izistonga migratsiyasi sabablari orasida tarixiy vatan bilan doimiy va erkin muloqot imkoniyatlarining yo'qolishi, siyosiy vaziyatdan norozi bo'lish, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va boshqa omillar mavjud.

Chegaraviy nizolarga qaramay, ikki tomon yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini saqlab kelmoqda va ular o'rtasida vizasiz rejim mavjud.

Xulosa: Shunday qilib mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin, Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosat yo'nalishini tanlash masalasini kun tartibiga qo'ydi.

Sovet Ittifoqi parchalangach, ba'zi postsovet Markaziy Osiyo davlatlari dastlab G'arbga yo'nalgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan ular ichki va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun avvalo qo'shni davlatlar bilan hamkorlik qilish zarurligini anglay boshladilar.

Chunki Markaziy Osiyo davlatlari tarixiy umumiylikka ega va ular mintaqaviy hamkorlik doirasida hal qilinishi kerak bo'lgan umumiy muammolarga duch kelmoqda.

Markaziy Osiyoning geosiyosiy kompleksidagi etnopolitik omil bugungi kunda eng murakkab va dolzarb masalalardan biridir. Mintaqaviy etnoterritorial, resurs, til, ekologik, demografik, migratsion va boshqa muammolarning bir-biri bilan bog'lanib ketishi mintaqadagi etnopolitik keskinlik darajasini belgilaydi.

Mintaqada mavjud bo'lgan chegaraviy muammolar o'zaro manfaatli echim topilmagani sababli Markaziy Osiyodagi nizolarni kuchaytiradi. Chegaralarning hal qilinmagan masalalari nafaqat delimitatsiya va demarkatsiya, chegaralar rejimini belgilash masalalarini, balki yirik etnik muammolarni ham hal qilishni talab qiladi.

Chunki Markaziy Osiyo davlatlarining yangi chegaralari atrofida boshqa millatlarning katta diasporalari, shu jumladan anklavlarda yashaydigan xalqlar mavjud.

Bu esa chegaralarni belgilash jarayonida millatlararo ziddiyatlarga olib kelmoqda.

Yangi Markaziy Osiyo davlatlarining ochiq chegaralari kontrabanda, narkotrafik va noqonuniy migratsiya uchun eshik bo'lib, milliy xavfsizlikni zaiflashtirmoqda.

Qolaversa 1924-1929-yillardagi milliy hududiy chegaralash natijasida mintaqada davlatlarining chegaralari ko'p jihatdan soddalashtirilgan tarzda belgilandi, ko'plab omillar jumladan, etnologik omillar hisobga olinmadi.

O'tgan asrning 20-30-yillarida amalga oshirilgan chegaralash va keyinchalik o'tkazilgan ma'muriy qarorlar Markaziy Osiyo respublikalari chegaradosh hududlarini rivojlantirish masalalarida ko'plab muammolar jumladan, hududiy ziddiyatlar meros bo'lib qolgan.

Biz maqsadimizni chegaralarni geografik va siyosiy tadqiqotlarda o'rganish bo'yicha nazariy yondashuvlarni ko'rib chiqish hisoblanib asosiy e'tiborni nizoliy xududlar uchun baxs yurutib turli muammolarni keltirib chiqarishga emas balki munozarali muammolarni tich yo'l bilan diplomatik ravishda, manfaatli kelishuvlar orqali bartaraf etishga qaratish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rajabov Q., Zamonov A. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar): O'rta talim muassasalarining 10-sinf va kasb hunar talim muassasalari uchun darslik / Muallif.: Q.Rajabov, A.Zamonov I-nashr. - T.: G'ofur G'uilom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. - 144 b. ISBN 978-9943-5008-7-7
2. Mo'minov I. O'zbekiston SSR tarixi. 3-jild. - Toshkent: Fan, 1971.
3. Markaziy Osiyo chegaralari bo'linishidagi fitnalar [Elektron resurs]. #fikratuz
4. O'zbek-qirg'iz mojarosi [Elektron resurs]. 01.06.2020 URL: <https://qalampir.uz/uz/news/dunyo-gozali-qaysi-jamoa-jaxon-chempioni-bolishini-aytdi-20678>
5. So'xliklar xayot sifatini yaxshilashdagi muhim qadam qo'yildi [Elektron resurs]. 13.08.2020 URL: <https://yuz.uz/uz/news/sox-xalqining-hayot-tarzini-tubdan-yaxshilanadi>
6. Qirg'iz-Tojik chegara mojarosi [Elektron resurs]. 17.02.2023 URL: [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qirg%CA%BBiz-tojik_chegarasidagi_mojaro_\(2021\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qirg%CA%BBiz-tojik_chegarasidagi_mojaro_(2021))
7. Abdulla Aripov O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegara bitimi tafsilotlarini ma'lum qildi [Elektron resurs]. 14.11.2022 URL: <https://kun.uz/news/2022/11/14/abdulla-aripov-ozbekiston-va-qirgiziston-ortasidagi-chegara-bitimi-tafsilotlarini-malum-qildi>
8. O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida o'zbek-qirg'iz Davlat chegarasining alohida uchastkalari to'g'risidagi Shartnomani (Bishkek, 2022-yil 3-noyabr) ratifikatsiya qilish haqida [Elektron resurs]. URL: <http://lex.uz//docs/-6302567>
9. O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qirg'iziston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'rtasida Andijon (Kampirobod) suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish to'g'risidagi Bitimni (Bishkek, 2022-yil 3-noyabr) ratifikatsiya qilish haqida. URL: <http://lex.uz//ru/docs/-6302571>
10. Ўзбекистон Президенти Қирғизистон билан чегара ва Андижон сув омборига оид қонунларни имзолади. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/5745>
11. Qirg'iziston tomoni O'zbekiston bilan chegara kelishuvi tafsilotlarini ma'lum qildi [Elektron resurs]. 10.10.2022 URL: <https://kun.uz/uz/96553020>
12. Коваленко Г.В. Ферганский фактор Как проблема безопасности Центральной евразии/ Российско-таджикский (славянский) университет ул. М. Турсунзаде, 30, Душанбе, Республика Таджикистан, 734025
13. Советские республики, упразднённые до развала СССР. [Elektron resurs] 05.10.2019 URL: <https://dzen.ru/a/XZhn8RGNfwCtheli>
14. Конфликт на кыргызско-таджикской границе [Elektron resurs] 18.09.2022 URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2022/09/18/conflict-kg-taj/>
15. Jumaxonov Sh.Z, Toshpo'latov A.M. Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan milliy-xududiy chegaralanishning tarixiy-geografik tarixi. Z.Sh.Jumaxonov, M.A. Toshpo'latov. O'tmishga nazar. - 2020. - №8. - S. 35-50.